
RISHTONLIK O'QUVCHI TURKIYADAGI FESTIVALDA ISHTIROK ETDI

Avval xabar berib o'tganimizdek, 23-27 noyabr kunlari Toshkent shahrida 5-Turk dunyosi bolalarining bilim va madaniyat festivali bo'lib, unda Rishton tumanidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabining 7 b sinf o'quvchisi Sarvinoz Abdumannonova qatnashib, uning ijodiy namunalari festivalda g'olib deb topilgan edi. Kulolchilik bilan miniatyura san'atini uyg'unlashtirgan rishtonlik o'quvchi 2022 yil martda Turkiyada bo'lib o'tadigan tadbirda ijodiy ko'rgazmasini namoyish qilish imkoniyatini qo'lga kiritgan edi. Ayni damda Roshidon farzandi Sarvinoz Abdumannonova Turkiyada o'tkazilayotgan 5-Turk dunyosi bolalarining bilim va madaniyat festivalida o'z ko'rgazmalari bilan ishtirok etdi.

2022-05-17 18:36:36